

BOLALAR ADABIYOTIDA MILLIY - MA'DANIY SO'ZLARNING QAYTA YARALISHI

Komiljonova Robiya Raxmatjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xamidova Mohinaxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyotida uchraydigan milliy-madaniy birliklar — realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonidagi asosiy muammolar tahlil qilinadi. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari misolida tarjimonlarning milliy ruh, xalqona ifoda va madaniy kontekstni yetkazishdagi yondashuvlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, transliteratsiya va izohli tarjima usullari milliylikni saqlashda eng samarali usullar sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: tarjima, realiya, bolalar adabiyoti, milliy madaniyat, ekvivalentlik, izohli tarjima, "Sariq devni minib" asari

Annotation: This article analyzes the major challenges faced when translating culturally specific elements—realia—found in children's literature into English. Using Khudoyberdi To'xtaboyev's *Riding the Yellow Giant* as a case study, the research examines how translators convey national spirit, folkloric expression, and cultural context. The findings reveal that transliteration and explanatory translation emerge as the most effective strategies for preserving cultural authenticity.

Keywords: translation, realia, children's literature, national culture, equivalence, explanatory translation, "Riding a yellow giant"

Аннотация: В данной статье анализируются основные проблемы перевода национально-культурных единиц — реалий, встречающихся в детской литературе, на английский язык. На примере произведения Худойберди

Тухтабаева «Оседлав жёлтого дива» рассматриваются подходы переводчиков к передаче национального колорита, народных выражений и культурного контекста. Результаты исследования показывают, что транслитерация и пояснительный перевод являются наиболее эффективными стратегиями сохранения национальной самобытности.

Ключевые слова: перевод, реалия, детская литература, национальная культура, эквивалентность, пояснительный перевод, ‘Езда желтый гигант’

Kirish

Bolalar adabiyoti – yosh avlodning ma’naviy olamini shakllantirish, ularning tasavvuri, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadigan badiiy adabiyot turidir. U bolalarning yoshiga, psixologik xususiyatlariga va bilish darajasiga mos tarzda yaratiladi. Bunday asarlarda sodda til, qiziqarli syujet, yorqin obrazlar va tarbiyaviy g‘oyalar yetakchi o‘rinda turadi.

Har bir xalqning bolalar adabiyoti uning madaniy merosi, tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazuvchi muhim ko‘prik vazifasini bajaradi. Ertaklar, hikoyalar, fantastik asarlar orqali bolalar ezgulik, do‘stlik, adolat, mehr-shafqat kabi tushunchalarni o‘zlashtiradi. Zamonaviy davrda esa bolalar adabiyotining vazifasi kengayib, bolalarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbek bolalar adabiyotining yorqin namunalaridan biri – Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridir. Ushbu asar mazmundagi sarguzashtlar, kulgili vaziyatlar va o‘ziga xos milliy ruh orqali bolalarni o‘ziga rom qiladi. Asarda xalqona iboralar, madaniy realiyalar, mahalliy turmush tarzi va bolalarga xos beg‘ubor fikrlash yorqin tasvirlanadi. Shuningdek, unda halollik, mehnatsevarlik, jasorat va ezgulikka intilish kabi g‘oyalar asosiy o‘rinni egallaydi. Aynan shu asar orqali bolalar adabiyotining badiiy tillari, milliy obrazlar, xalqona hazil-mutoyibalar va bolalar dunyoqarashiga mos badiiy uslub qanday yaratilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, “Sariq devni minib” asari misolida milliy-madaniy birliklarni tarjima qilish

jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ko‘rish ham mumkin. Chunki undagi o‘zbekona terminlar, hazillar va madaniy kontekst tarjimada har doim ham to‘liq tarzda berilavermaydi. Shu sababli bolalar adabiyotini, xususan “Sariq devni minib” singari asarlarni tahlil qilish va undagi milliy unsurlarni tarjimada qanday aks ettirish masalasi tadqiqot uchun dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

Bolalar adabiyoti adabiyotning o‘ziga xos, murakkab va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, yosh avlodning ma’naviy, axloqiy hamda estetik tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bolalar adabiyoti nafaqat badiiy asarlarning yig‘indisi, balki bolalar dunyoqarashi va tafakkurini shakllantiruvchi kuchli pedagogik vositadir [1]. Bolalar uchun yaratilgan asarlarning mazmuni, obrazlar tizimi, badiiy tili va syujeti ularning yosh psixologiyasiga mos bo‘lishi, shu bilan birga ularda kitobga mehr, fikrlash, tasavvur, hamdardlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim. Bolalar adabiyoti nazariyasida quyidagi xususiyatlar asosiy o‘rinni egallaydi:

- tilning soddaligi va ravonligi - bolaga tushunarli, hayotiy va obrazli bo‘lishi
- ertakona va sarguzasht elementlari - bolaning qiziqishi tasavvuri va ijodiy fikrlashini rivojlantirishi
- tarbiyaviy g‘oya- asarda ezgulik va yovuzlikning kurashi, halollik, jasorat, do‘stlik kabi xususiyatlarning ustuvorligi
- milliy ruhning ustuvorligi - xalqning mentaliteti, qadriyatlari, an‘analari va hayot tarzining aks etishi[2]

Bolalar adabiyoti milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtiradi. Milliy atmosfera – xalqona iboralar, taomlar, an‘analari, qishloq yoki shahar muhiti bolalarning madaniy identitetini shakllantiradi. Shu bilan birga, o‘zbek bolalar adabiyotida halollik, mehnat, odob, do‘stlik, jasorat kabi universal fazilatlar ham alohida o‘rin tutadi [3].

Psixologlar bolalar uchun yaratilgan matnlarda oddiy lekin obrazli til, jonlantirish, takroriy elementlar, sarguzasht sahnalari muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu bolaning diqqatini jamlash, matnni eslab qolish va qahramonlar bilan birga hayajonlanishiga yordam beradi [4].

Shuningdek, bolalar adabiyotida syujetning dinamikligi – voqealarning tez almashishi, kulgili vaziyatlar, kutilmagan burilishlar – muhim nazariy kategoriya hisoblanadi. O‘zbek bolalar adabiyotida ayniqsa sarguzasht va hazil-mutoyibaga boy asarlar keng uchraydi [5].

Bolalar adabiyoti tarixiy davrlar bilan chambarchas bog‘liq. XX asr o‘rta davrlarida realizm tamoyillari kuchayishi bilan bolalar hayotidagi real muammolar, maktab hayoti, oila, do‘stlik, qiziqarli voqealar keng tasvirlana boshlandi [6]. Xudoyberdi To‘xtaboyevning ijodi aynan ana shu yangi adabiy bosqichning mahsuli bo‘lib, unda milliy ruh, zamonaviylik, hazil va fantastika uyg‘unlashgan.

Bolalar adabiyoti uch asosiy guruhga bo‘linadi[7]:

- Boshlang‘ich yosh adabiyot
- O‘rta yosh adabiyoti
- O‘smirlar adabiyoti

Har bir guruhga mos ravishda til, mavzu, obrazlar tizimi, psixologik murakkablik darajasi farq qiladi. Masalan, “Sariq devni minib” asari o‘rta yosh va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda sarguzasht, fantastika va humor yetakchi rol o‘ynaydi.

Bolalar adabiyotida hazilning o‘rni benihoya katta. To‘xtaboyev asarlaridagi yumor bolaga nafaqat kulgi, balki hayotiy vaziyatlarga boshqacha qarash, o‘z xatolarini anglash, o‘ziga ishonchni oshirishga yordam beradi [8].

Didaktiklik va badiiylik uyg‘unligi ham muhim nazariy masala hisoblanadi. Didaktiklik o‘qitish maqsadini anglatadi, biroq zamonaviy bolalar adabiyotida bu quruq nasihat emas, balki hayotiy voqea, obrazlar orqali beriladigan yumshoq tarbiyaviy yo‘nalishdir [9].

Bolalar adabiyotida fantastika ham alohida o‘rin tutadi. Fantastik obrazlar bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, unga hayotni o‘zgacha talqin qilish imkonini beradi. “Sariq devni minib” kabi asarlarda fantastika, g‘aroyib hodisalar, devlar, sehrli vaziyatlar bola ongida qo‘rquv emas, balki qiziqish uyg‘otadi.

Bolalar adabiyotining lingvistik asoslari ham muhim:

- sodda sintaksis,
- qisqa gaplar
- dialoglarning ko‘pligi
- og‘zaki nutqqa yaqinlik
- ritmli, ravon uslub [10].

Bu nazariy asoslar “Sariq devni minib” asarining tahliliga mustahkam zamin yaratadi. Asar bolalar adabiyotiga xos bo‘lgan badiiylik, kulgi, milliylik, sarguzasht va tarbiyaviylkni eng mukammal darajada mujassamlashtirgan. Quyida esa asarda uchraydigan ba‘zi asosiy realiyalar hamda ularning ma‘zmunlarini ko‘rib chiqamiz:

Asarda uchraydigan milliy-ma‘daniy realiyalar

1. Turmushga oid realiyalar
 - Do‘ppi – o‘zbeklarning milliy bosh kiyimi bo‘lib, nafaqat kiyim elementi, balki identitet ramzi hamdir. Qissa qahramonlari tasvirida do‘ppining tilga olinishi ularning milliy qiyofasini ko‘rsatadi.
 - Choynak, piyola, lagan – o‘zbekning choyxo‘rlik madaniyati bolalar adabiyotida ko‘p uchraydi. “Sariq devni minib”da ham choy ustida bo‘ladigan suhbatlar milliy muhitni jonlantiradi.
 - Mahalla – o‘zbek jamiyati va bolalik hayotining ajralmas bo‘lagi. Asardagi mahalla tasvirlari ijtimoiy munosabatlarni ochib beradi.
2. Etno-madaniy tushunchalar
 - Dev obrazlari – o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga xos mifologik personajlar. To‘xtaboyev ularni zamonaviy bolalar ongiga mos holda kulgili, quvnoq, soddadil qiyofada berib, milliy folklorni zamonaviy adabiyotga olib kirgan.

➤ Dono kampir, oqsaqol, hovli kabi tushunchalar o‘zbek oilaviy va ijtimoiy tuzilmasining real ko‘rinishlarini aks ettiradi.

3. Til birliklari sifatidagi realiyalar

“Voy-bo‘, tavba!”, “Xo‘sh, bolam!” kabi milliy ohangdor iboralar o‘zbek nutq madaniyatining poetikasini beradi.

“Sariq devni minib” iborasining o‘zi ham milliy metafora sifatida qiziqish uyg‘otadi: sarguzasht va mo‘jiza unsurlarini birlashtiruvchi milliy timsol.

Asardagi realialarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar

Bolalar adabiyotidagi milliy unsurlarni tarjima qilish o‘ziga xos masalalarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, “Sariq devni minib” kabi milliy koloritga boy asarlarda:

1. Ekvivalentning yo‘qligi

Ba’zi so‘zlar boshqa tillarda to‘liq muqobilga ega bo‘lmaydi. Masalan:

➤ Do‘ppi – “skullcap” yoki “embroidered cap” deb berilishi mumkin, lekin bu tarjimalar milliy ramz ma’nosini to‘liq aks ettirmaydi.

➤ Dev – ingliz tilida “giant”, “ogre” yoki “monster” kabi so‘zlar bor, ammo ular o‘zbek mifologiyasidagi devning yumoristik, soddadil tabiatini to‘la ifodalamaydi.

2. Milliy muhitning yo‘qolish xavfi

Mahalla, choyxo‘rlik, o‘zbek oilaviy an‘analari kabi elementlar tarjima jarayonida neytrallashib ketishi mumkin. Masalan, “choy damlash” jarayoni “make tea” deb berilganda o‘ziga xos milliy xususiyatlarini yo‘qotadi.

3. Bolalar uchun moslashtirish

Tarjimon bolalar auditoriyasini hisobga olgan holda ba’zan izohli tarjima yoki adaptatsiya usulidan foydalanishga majbur bo‘ladi. Masalan:

“Sumalak”, “lagan”, “palov” kabi so‘zlar keltirilganda izoh (footnote) yoki matn ichidagi qisqa tushuntirish talab qilinadi.

Realialarni tarjima qilish usullari

Asar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimonda quyidagi usullar samarali bo‘lishi mumkin:

1. Transliteratsiya (soʻzni oʻz holda berish)

Culturally specific soʻzlar uchun eng mos usul:

- doʻppi — doppi
- dev — dev

Bu usul milliy ruhni asrashga xizmat qiladi.

2. Izohli tarjima

Soʻz matn ichida qisqa izoh bilan beriladi:

- Mahalla (local neighborhood community)
- Doʻppi (traditional embroidered skullcap)

3. Muqobil topish (adaptatsiya)

Baʼzi holatlarda oʻquvchi uchun tushunarliroq boʻlishi uchun nisbiy ekvivalent beriladi:

- Palov — rice pilaf (palov)
- Choy damlash — to brew Uzbek tea

4. Kontekstual tarjima

Soʻz toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki matndagi vazifasiga qarab tarjima qilinadi:

Devning kulgili tabiatini ifodalashda ingliz tilida “funny giant” yoki “goofy ogre” kabi yumoristik muqobillar ishlatiladi.

Quyidagi jadval orqali “Sariq devni minib” asaridan olingan misollarni koʻrishingiz mumkin:

No	Uzbek	English	Definition
1.	Sirojiddin aka	Sirojiddin aka	Is a word used to give respect to elders
2.	Palov	Plov	Is a traditional Uzbek food
3.	Folbin	Soothsayer	A person practicing, divination, including,

			fortune-telling, oracle, haruspex
4.	Agronom	An agronomist	Ia a specialized type of Soil and Plant Scientist
5.	Zootexnik	Zootechnician	One working in the field of
6.	Kolxozchi	Farmer	One who tends or raises cattle
7.	Nitrat	Nitrate	Is a polyatomic ion with malecular formula
8.	Kompot	Compote	Is a dessert mode of whole or pieces of fruit in sugar syrup
9.	Qofiya	A rhyme	Is a repetition of similar sounds (or the same sound) in two or more words, most often in the final syllables of lines in poems and songs.
10.	Somsa	Samsa	Is a Savoury meat pastry in Central Asian countries

Xulosa

Bolalar adabiyoti – yosh avlodning axloqiy, estetik va intellektual rivojlanishida asosiy vositalardan biridir. Undagi sodda til, qiziqarli syujet va tarbiyaviy g‘oyalar bolalarning dunyoqarashini shakllantiradi. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari esa bolalar adabiyotining yorqin namunasi bo‘lib, unda xalqona iboralar, hazil, milliy realiyalar va obrazlilik mujassam.

Mazkur asarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, milliy koloritga ega birliklarni yetkazishda tarjimon ko‘plab pragmatik va lingvistik muammolarga duch keladi. Ba’zi realiyalar bevosita tarjima qilinadi, ba’zilariga esa

izohlash yoki mos ekvivalent topish kerak bo‘ladi. Bu jarayon bolalar auditoriyasining yosh xususiyatlarini ham hisobga olishni talab qiladi.

Shu sababli, bolalar adabiyotini tarjima qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, tarjimon milliy ruhni saqlagan holda matnning tushunarligini ta’minlashi lozim. “Sariq devni minib” misolida ko‘rish mumkinki, bolalar adabiyotidagi milliylikni global auditoriyaga yetkazish izchil ilmiy yondashuv va ehtiyotkorlikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yoqubov Q. Bolalar adabiyoti. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
2. Karimov I. Bolalar adabiyoti nazariyasi. — Toshkent: Fan, 2015.
3. Mamatqulov R. “Bolalar adabiyotining tarbiyaviy ahamiyati”. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020, №2, 35–42-betlar.
4. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. — Moskva: Pedagogika, 2013.
5. Mamajonov A. Bolalar adabiyoti va adabiy ta’lim. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2019.
6. Qosimova D. “XX asr o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni”. Adabiyot va san’at, 2018, №3.
7. Shodmonov M. Bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasi. — Toshkent: TDPU, 2020.
8. Toirova M. “Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida humorning o‘rni”. Filologiya masalalari, 2019, №1.
9. Zevin G. Children’s Literature: A Reader’s Guide. — London: Routledge, 2015.
10. Clark, A. Language Development in Children’s Literature. — New York: Springer, 2014.